

O'ZBEK ADABIYOTIDA OPA-SINGILLAR OBRAZI TASVIRI VA TADRIJI

Abdumalikova Dilnavoz

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya:

Ushbu maqolamizda, dastlab, o'zbek folkloriga so'ngra, o'zbek yozma adabiyotiga opa-singillar obrazining kirib kelishi, opa-singillar obrazining asar badiiyatida tutgan o'rni haqida qisqacha ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Poetika, tasvir, mimesis, folklor, ertak, konflikt, qiyoslash, tadrij, badiiyat, akslantirish, qissa, evrilish.

San'at badiiy obraz orqali fikrlaydi. Obraz haqidagi dastlabki ma'lumotlarni esa Arastuning "Poetika" asarida uchramiz. O'z asarida Arastu obraz terminini "mimesis" deb nomlab unga quyidagicha ta'rif beradi: "Epos va tragediya, shuningdek, komediya va difiramba ijod etish, avletika va kifaristikaning katta qismi – bu hammasi, umuman aytganda, o'xshatish(mimesis) san'atidan o'zga narsa emas; ular o'zaro uch jihatdan: (1) tasvirlashning turli vositalari bilan; (2) nima tasvirlanayotgani bilan; (3) rang-barang, o'xshatish usullari bilan farqlanadi."¹

Yuqorida Arastu ta'kidlaganidek badiiy obraz ya'ni, mimesisni o'xshatish san'ati deb aytishimiz mumkin. Bu bekorga emas, albatta. Har bir yozuvchi, biron asar yozishni boshlar ekan, atrofidagi juda ko'p shaxslarni kuzatadi. Ularning har biridan bo'lajak asaridagi qahramonlar uchun ma'lum bir elementlarni o'zlashtiradi va keyinchalik o'z ijod na'munasida bu harakterlarni jamlab ma'lum bir obrazni yaratadi. Hamda, shu obrazlar orqali, insonlarga tom ma'noda o'z aksini ko'rsatadi.

O'zbek adabiyotshunosligida yozma adabiyot yaratilmasdan avval, dastlab, og'zaki adabiyot maydonga kelgan. O'zbek so'z san'atiga opa-singillar obrazining kirib kelishi mumtoz adabiyotimiz ufqlarining eng qadimgi na'munalariga borib taqaladi. Og'izdan og'izga o'tib yurgan xalq maqollari, mavsum va marosim qo'shiqlari, ayniqsa, xalq ertaklari zahirida opa-singillik aloqlarini jonlantirgan na'munalar talaygina. Mavzumiz ertaklar bilan bog'liq

¹Arastu.Poetika.Axloqikabir.Ritorika.Yangi asr avlodi.T.2011.B-20.



ekan, avvalo, ertak atamasiga to'xtalishni lozim deb topdik. "Ertak - o'zbek xalq og'zaki ijodining eng qadimiy va eng ommaviy janrlaridan biri. Fantastik xayolot hamda badiiy to'qimalar asosiga qurilib, didaktik g'oya tashuvchi og'zaki hikoyalar ertak deb ataladi. NMM namunasi bo'lgan ertaklarda xalqning dunyoqarashi, milliy xarakteri, turmush tarzi, tafakkur olami ma'lum darajada o'z ifodasini topadi. Ertaklarning paydo bo'lishida qadimiy miflar, urf-odat va marosimlar muhim o'rin tutadi. Ertak atamasi Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida «etuk» shaklida keladi va biror voqeani og'zaki hikoya qilish ma'nosini bildiradi.»² Folklor na'munalari tarkibidagi "Uch og'a- ini botirlar", "Zumrad va Qimmat", "Besh qiz", "Oltin beshik", "Opa-singil", "Ayi polvon" va shu kabi juda ko'plab ertaklar markazida opa-singillar obrazi turadi. Bu ertaklarning ayrimlarida opa-singillar asosiy planda turgan bo'lsa, ayrimlarida asarning ba'zi o'rinlaridagina tilga olinadi, biroq ular ertak voqealarining rivojida salmoqli o'rinni egallaydi.

Opa va singil o'rtasidagi o'zaro munosabatlar yaqqol aks etgan Xalq og'zaki ijodi namunalari keyinchalik adabiyotimiz vakillari tomonidan opa va singil munosabatlari yoritilgan asarlarni yaratilishiga turtki bo'lgan. Jumladan, XX asr o'zbek nasri darg'alaridan hisoblangan Abdulla Qodiriy, dastlab, o'zining "O'tgan kunlar" romanida, ikki manfur opa va singil Zaynab hamda Xushro'y timsollariga to'xtaldi. Bir oilada, bir ota-onadan tarbiya topgan opa-singillar ikki xil dunyo kishilari sifatida qalamga olinadi.

Keyinroq, mohir so'z zargari Abdulla Qahhor "Nurli cho'qqilar" hikoyasida, egizak opa-singillar Fotima va Zuhra obrazlarini bosh planga olib chiqadi. Ikki tomchi suvdek bir-biriga behad o'xshash egizaklarni, harakter jihatdan, orzu-o'ylari jihatdan tamoman farqalangan holda gavdalandiradi..

Yozuvchi Asqad Muxtor tomonidan "Opa-singillar" nomi ostida qarindoshlik aloqalari tasvirlangan birinchi yirik nasriy asari yaratiladi. Romanda Tursunoy va Bashorat ismli opa-singillar misolida asar voqealari rivojlanib bordi. Asqad Muxtor opa-singillar obrazini tasvirlashda yangi bir yo'nalish boshlab, butun o'zbek ayollarini o'zaro opa-singil sifatida akslantirishga harakat qildi.

Maqsud Qoriyevning "Afrosiyob go'zali" qissasida bir yigitga muhabbat qo'ygan opa va singilning o'zaro konfliktli tomonlari yoritib beriladi.

O'lmas Umarbekov qalamiga mansub "Fotima va Zuhra" romanida faqat egizaklar taqdirini aks ettirib qolmasdan, o'sha davr yoshlarining tarbiyasi,

²Jo 'rayev M, Eshonqulov J.Folklorshunoslikka kirish.T.2017.B-150.



qolaversa, xalqning ijtimoiy ahvoli ham chuqur tahlilga tortdi. Dedektiv yo‘nalishda yaratilgan bu san‘at na‘munasi adabiyotimiz xazinasidan munosib o‘rin egalladi.

Abdulla Qahhor ham kichik hikoyasida egizaklar taqdiriga to‘xtalib o‘tadi. “A.Qahhorning “To‘yda aza”, “Nurli cho‘qqilar”, “Mahalla” kabi hikoyalari, garchi bundan yarim asr oldin yaratilgan bo‘lsa-da, xuddi hozirgi hayotimiz muammolariga bag‘ishlangandek o‘qiladi. Go‘yo biz kunda-kunora ko‘rib, duch kelib yuradigan odamlar, hayotiy voqealar haqida yozilgandek taassurot qoldiradi.”³

Shunday qilib, mumtoza adabiyotimiz ufqlaridan to bugunga qadar adabiyotimizda juda ko‘p opa va singil obrazlari tahlilga tortildi hamda bu asarlarda opa-singillar xarakterlarning ichki va tashqi olamidagi o‘zaro uyg‘unliklari, personajlar o‘rtasidagi ziddiyatlar, ularning ruhiyatidagi turfa evrilishlar, opa-singillik aloqlarining qanchalik mustahkam, yoki mo‘rt ekanligi tasvirlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Арасту. Поэтика. Ахлоқи Кабир. Риторика. – Тошкент: Янги аср авлоди. 2001.
2. Jo ‘rayev M, Eshonqulov J. Folklorshunoslikka kirish.-Toshkent:2017
3. O‘ljaboyev U. Abdulla Qahhorning hikoyanavislik mahorati. Adabiyotdan mahsus kurs fani bo‘yicha o‘quv-uslubiy qo‘llanma. Guliston. 2013
4. Internet ma'lumotlari.

³ O‘ljaboyev U. Abdulla Qahhorning hikoyanavislik mahorati. Adabiyotdan mahsus kurs fani bo‘yicha o‘quv-uslubiy qo‘llanma. Guliston. 2013. B-35.

